

YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYADA TA'LIM – TARBIYA JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI

Aliyeva Marhaboxon Mavjud qizi

SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIYA FAKULTETI O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI YO'NALISHI

1-BOSQICH TALABASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20116999>

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada ta'lim-tarbiya jarayonlari yosh va pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Turli yosh davrlarida o'quvchilarning psixik xususiyatlari va unga ko'ra bilish jarayonlarining rivoji yoritilgan. Shuningdek, ta'lim va tarbiyani uzviy tarzda olib borish jarayonida pedagogik mahoratning qay darajada muhim ekanligi ochib berilgan. Ushbu maqola pedagogik mahoratni yuksaltirishga xizmat qiluvchi nazariy manba sanaladi.

Kalit so'zlar: yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, intellektual rivojlanish, o'smirlik, o'spirinlik, ijodiy fikrlash, xayol, tafakkur xotira.

ANNOTATION:

This article analyzes the processes of education and upbringing from the perspective of developmental and educational psychology. It highlights the psychological characteristics of students at different age stages and the development of cognitive processes accordingly. It also reveals the importance of pedagogical mastery in the integrated process of education and upbringing. This article serves as a theoretical source for improving pedagogical mastery.

Keywords: developmental psychology, pedagogical psychology, intellectual development, adolescence, youth, creative thinking, imagination, thinking, memory.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье процессы обучения и воспитания проанализированы с точки зрения возрастной и педагогической психологии. Освещены психические особенности учащихся на различных возрастных этапах и развитие познавательных процессов в соответствии с ними. Также раскрыта важность педагогического мастерства в процессе неразрывного осуществления обучения и воспитания. Данная статья является теоретическим источником, способствующим повышению педагогического мастерства.

Ключевые слова: возрастная психология, педагогическая психология, интеллектуальное развитие, подростковый возраст, юношеский возраст, творческое мышление, воображение, мышление, память.

KIRISH

Yosh va pedagogik psixologiya ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishda tayanish lozim bo'lgan muhim sohalar sanaladi. Jamiyat rivojlanar ekan, yosh avlodni yetuk shaxs sifatida tarbiyalash va bugungi zamonaviy asrda intellektual salohiyati yuqori kadrlarni yetishtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu jarayonda bevosita pedagogik bilimga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik bilim esa o'z-o'zidan yosh davrlari psixologiyasi bilan uzviy tarzda rivojlanadi. Boisi shundaki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, individual farqlari va yoshga ko'ra psixik xususiyatlarini ham hisobga olish zarurdir.

Har bir yosh davri o'ziga xos psixik xususiyatlari, kognitiv rivojlanish darajasi bilan boshqalaridan farq qiladi. Pedagogik psixologiya shu jihatlarni tahlil qilib, ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish yo'llarini belgilaydi.

Ushbu maqolada turli yosh davrlarining psixologik xususiyatlari tahlil etilib, ta'lim va tarbiya jarayonining psixologik nuqtayi nazardan ahamiyati nazariy va ilmiy asosda yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur mavzuni yoritishda yosh va pedagogik psixologiya sohasiga oid bir qator ilmiy manbalar tahlil qilindi. Jumladan, Sh. A. Do'stmuhammedova, X. A. Tillashayxova, G. Baykunosova, G. Ziyavitdinovalarining psixologiya yo'nalishidagi ilmiy ish va tadqiqotlari turli yosh davrlaridagi psixik taraqqiyot jarayoni, shaxs rivojlanishida motivatsiya, bilish jarayonlari, ijtimoiy muhit ta'siri kabi omillarni tadqiq etgan.

Shuningdek, F. I. Xaydarov va N. I. Xalilovalarning “Umumiy psixologiya” asarida psixik qonuniyatlar, sezgi, diqqat, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi soda va murakkab bilish jarayonlarining nazariy ahamiyati yoritilgan bo'lib.

Z. T. Nishanova, N. G. Kamilova, D. U. Abdullayeva, M. X. Xolnazarovalarning “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya” nomli ilmiy o'quv qo'llanmasida rivojlanish va pedagogik psixologiyaning predmeti, metodlari, bo'limlari, ta'lim, tarbiya va o'qituvchi psixologiyasi haqida so'z yuritiladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil metodi, qiyosiy tahlil metodi, kuzatish metodi. Nazariy tahlil orqali turli ilmiy adabiyotlar ko'rib chiqildi va nazariy fikrlar o'rganildi. Qiyosiy tahlil metodida turli olimlarning turli yosh davrlarida psixik xususiyatlar taraqqiyoti to'g'risidagi fikrlari o'rganilib, qiyoslandi. Kuzatish metodi orqali o'quvchilarning turli sinfdagi yoshga xos xususiyatlari, ularning bilish darajalari tahlil etildi.

NATIJALAR

Yosh davrlari psixologiyasi ontogenezdagi barcha rivojlanish bosqichlarining psixik xususiyatlari, qonuniyatlari, psixik jarayonlarning kechishini tahlil etsa, pedagogik psixologiya ta'lim va tarbiyaning shaxs rivojidadagi ahamiyatini o'rganuvchi, psixologiya fanining bir sohasi sanaladi. Har bir yosh davri o'ziga xos yetakchi faoliyatga ega va bunda ta'limning o'rni katta:

- Kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat turi o'qish hisoblanib, bolaning maktabga borishi nafaqat uning bilim sohasi rivojiga, balki ijtimoiylashuv natijasida yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga ham muhim hissa qo'shadi.
- O'smirlik davrida mantiqiy tafakkur rivoji, ixtiyoriy xotiraning kuchayishi, nutqning boyishi, ijodiy qobiliyatning oshishi kuzatiladi.
- O'spirinlik davriga kelib bolalar to'la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'z-o'zlarini tahlil eta oladilar. Ular endi bema'lol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslashga olib, o'z munosabatlarini bildiradilar.¹

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir pedagog bevosita qaysi yosh davrdagi jarayonlarni kechirayotganiga ko'ra o'quvchilarning bilim darajasini baholaydi, darsga qiziqish uyg'otadi, ularning tarbiyaviy holati bilan shug'ullanadi va bilish darajasiga ko'ra vazifa va topshiriqlarni o'quvchi zimmasiga yuklaydi.

MUHOKAMA

¹ Sh. A. Do'stmuhammedova, X. A. Tillashayxova, G. Baykunosova, G. Ziyavitdinova. Umumiy psixologiya (2-kitob: Yosh davrlari va pedagogik psixologiya). Toshkent, 2020. 345 b.

Tahlil qilingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim va tarbiya jarayoni qanchalik yosh va pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan olib borilsa, ta'lim sifati yana-da yaxshilanadi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi kuchayadi.

Tadqiqot jarayonida shu muammo aniqlandiki, ta'lim berish mobaynida psixologik bilimlarga ega bo'lmagan pedagoglarning mavjudligi bugungi kunda ta'lim sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Pedagogik va yosh davrlari psixologiyasini yaxshi o'zlashtirgan va amalda qo'llay bilgan pedagog o'quvchilarining individual psixik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda munosabat bildira oladi, ularning qiziqish va intilishlariga ko'ra yo'naltira oladi.

Umuman olganda, pedagogik va yosh davrlari psixologiyasini o'rganish ta'lim va tarbiya jarayonining samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Pedagogik psixologiya, yosh davrari psixologiyasi, ta'lim va tarbiya tushunchalari bir-biri bilan o'zaro uviy bog'liq tushunchalardir. Pedagogik psixologiya ta'lim jarayonining samarali olib borilishini ta'minlasa, yosh davrlari psixologiyasi turli yosh davrlarida shaxsning rivojlanish qonuniyatlarini tahlil etadi.

Ta'lim jarayoni shaxsga bilim, ko'nikma va malakalarni berishga qaratilgan bo'lsa, tarbiya jarayoni shaxsda ijobiy fazilatlarining shakllanishiga, odob-axloqning jamiyatda bevosita amal qilishiga, ijtimoiy qadriyatlarining rivoj topishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar natijasida shu ma'lum bo'ldiki, psixologik bilimlarga tayangan holda darsni tashkil etish berilgan bilimlarning o'quvchilar xotirasida mustahkam o'rnashishiga, yangi bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan mashg'ulotlar ta'lim sifatining yana-da oshishiga sabab bo'ladi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, sog'lom oilaviy va ijtimoiy muhit, milliy qadriyatlarining rivoji tarbiya jarayonining rivojiga hissa qo'shadi.

Umuman olganda, ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogik va yosh davrlari psixologiyasiga tayangan holda amalga oshirish bu jarayonlarning samarali rivojiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. E. G'. G'oziyev. Psixologiya (kasb-hunar kollejlari uchun darslik, 2-nashr). Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
2. E. G'. G'oziyev. Umumiy psixologiya (I-kitob). Toshkent: "Universitet" nashriyoti, 2002. 167 b.
3. F. I. Xaydarov, N. I. Xalilova. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2009. 335 b.
4. Sh. A. Do'stmuhamedova, X. A. Tillashayxova, G. Baykunosova, G. Ziyavitdinova. Umumiy psixologiya (2-kitob: Yosh davrlari va pedagogik psixologiya). Toshkent, 2020. 345 b.
5. Z. T. Nishanova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018. 600 b.